

MEHMON KUTISH ODOBI

*Namangan Viloyati tarixi va madaniyati
davlat muzeyi ilmiy xodimi: Yigitaliyeva SH.*

Mehmon atamasi fors tilidan olingan bo'lib "tashrif buyuruvchi" degan ma'noni anlatadi. O'zga xonadon, mahalla, yurtga samoviy rishtalarni bog'lash, ezgu niyat va ishlarni amalga oshirish maqsadida tashrif buyuruvchi shaxs. mehmon kelishini xalqimiz ezgulik, yaxshilik ramzi deb hisoblaydi. Malumki xar qanday jamiyatda yashayotgan kishilar bir birlari bilan moddiy va manaviy munosabatlarga kirishadi. Ma'naviy aloqalarning bir qirrasini mehmon mezbonlik munosabatlari tashkil etadi. Odamlarning bir-biri bilan bordi-keldi qilishi, muloqotda bo'lishi, bo'lishi, bir biriga, mehr-oqibat, muruvvat ko'rsatishi, mehmonlik va mezbonlik aloqalarini bog'lashlari insoniy fazilat hisoblanadi. Mehmonlik O'zbek xalqining ming yillar mobaynida tarkib topib, tajribasidan o'tib barchaga manzur bo'lgan progressive va demokratik xarakteridagi an'anadir. mehmon kutish yuksak odob, axloq, nafosat, umumiy olganda, manaviyat maktabi hisoblanadi. mehmonlik orqali do'stlik, o'rtoqlik, odamgarchilik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Mehmondorchilik odobi – insonlarning yuksak insoniy va samimiy fazilatlari asosida qurilgan mehmonga borish va mehmon kutish borasidagi o'zaro muloqoti va munosabatlarida amal qilinadigan odob-ahloq talablari, muayyan tartib-qoida va udumlarni ifodalaydigan tushuncha. Mehmon odobi xalq turmush tarzining g'oyatda nozik, yuksak madaniyati va ma'naviy qadriyati hisoblanadi. Mehmondorchilik odobini bilish, unga amal qilish ma'naviyatlik belgisidir. Halimizga xos mehmondorchilikda qaysi uyga mehmon kelsa, darhol dasturxon yozib, non ushatiladi. Mehmondorchilik odobi borasida har bir mintaqaning o'ziga hos xususiyatlari ham mavjud. Farg'ona vodiysi va Samarqandda mehmonga dastavval iliq ko'k choy beriladi. Toshkentda esa xushbo'y familchoy damlash odat tusiga kirgan. Surxondaryoliklarga mehmonga borilsa, hushbo'y ko'k choy bilan birga archa o'tinida pishirilgan tandir kabob keltirilib, mehmon hurmati joyiga qoyiladi. Farg'ona va Andijonda mehmon kelgan xonadonga qo'shnilar xurmat yuzasidan dasturxon chiqaradilar. Mehmonning muhimi va nomuhami, kattasi yo kichigi bo'lmaydi. Mehmonga sarpo kiydirish odatining ikki ma'nosi bor. Biri- o'zining yaqin kishiga, qarindoshiga sarpo kiydirganda uzoqlashmaslik, begonalashmaslik, hamjihatlik istagi bildiriladi. Ikkinchisi – begonaga sarpo kiydirish u bilan do'stlashganlik, qarindoshga aylanganlik yoki qardon bo'lib qolganlikning ramziy ifodasi hisoblanadi. Shu sababli xotirjam kelib, el-yurt mehmoni bo'lgan kishilarga ham milliy ust – bosh kiydirish an'anaga aylanib ketgan. Mehmon kelgan uyda baqirib gaplashish, shovqin solish, uning huzurida adi-badi aytishish, urushib qolish u yoqda tursin hatto kesatib gapirib ham bo'lmaydi. Mehmonga ozor bermaslikka intilish esa odamlarni qovushtirib, mehr-oqibatli qiladi, do'stlik va birodarlik keltirib chiqaradi, oilada bir – biriga mehr-muhabbat, hamjihatlik, hotirjamlikni yanada kuchaytiradi. Mehmondorchilik odobi avvalo, odamlarni mehmonga taklif etishdan boshlanadi. Taklif etiladigan kishining vaqti bor yo'qligi bilib olinganidan keyingina uni mehmonga chaqirish mumkin. Mehmonlar keladigan paytda darvoza ochiq turishi kerak. Ularni eshik oldida samimiyat va ochiqko'ngillik bilan kutib olish lozim. Sovg'a olib kelganlarga ham, samimiy salomi

bilan kelganlarga ham baravar minnatdorlik bildiriladi . mehmon kelish oldidan bolalarni yuvintirib yaxshi kiyintirib qo'yish muhim. Bu narsa bolalarda ham mehmondorchilik ahamiyatini anglash hissini uyg'otadi. Mehmon oldida bolalar sho'xlik qilsa bolalarga tanbeh mermaslik lozim ,chunki bu holat mehmonning izzat-nafsiga tegishi mumkin . mehmondorchilikni uyushtirishda hisobga olinadigan jihatlar ko'p. Qishloqdan shaxarga kelgan mehmon shahar aylangisi, do'konlarga kirgisi teatrqa borgisi keladi. Shahardan qishloqqa kelgan mehmon esa tabiatdan bahra olishi va diqqatga sazovor joylarni aziz mehmonga tanishtirish lozim bo'ladi. Mehmondorchilik odobiga ko'ra, dasturxonni chiroyli bezatish va mehmonni risoladagiday kutib olish ham bir san'atdir. Mehmon uchun bezaladigan dasturxon har doimgi uydagi dasturxondan ancha farq qilishi joizdir.to'ylarda dasturxon boshqacha bezaladi. Bayram dasturxoni ham o'zgacha bezaladi. Dasturxon bezashda ikki qoida bor :1-qoida moddiy sharoitlarni, ikkinchisi esa ma'naviy sharoitlarni taminlashdir. Dasturxonga qo'yiladigan taomlar xilma xilligi, miqdori va sifati , ovqatlanish asboblarning yetarli miqdorda mavjudligi,dasturxon tuzaladigan joy pokiza , qishda issiq, yozda salqin bo'lishi – bularning hammasi moddiy sharoitlarga kiradi. Ma'naviy sharoitga mehmonlarni ezozlab kutib olish , do'stlik va samimiylik ko'rsatib , ularga sidqi dildan hizmat qilish kiradi. Mehmondorchilik odobi qoidalaridan yana biri shundaki, bu san'atga oilada o'g'il va qizlar yoshligidanoq o'rganib boriladi. Toki ular voyaga yetganlarida turli taomlarni tayyorlay bilsin, uyiga keladigan kishilarni ko'ngildagidek kutib oladigan mehmondosh bo'lib yetishsinlar degan maqsad olg'a surilgan .

Adabiyotlar:

1. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.
– T., 2006.
2. Manaviyat “asosiy tushunchalar izohli lug'ati”
3. Abdullayev N.U. San'at tarixi. 2-tom. – T.: «O'qituvchi»

